

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.Arslonzoda, O.Maripov</b>	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi .....	318
<b>R.Urazova</b>	
Avesto yashlarida Mitraning sifatleri .....	325
<b>N.Nizametdinov</b>	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
<b>I.Burxonov</b>	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
<b>N.Jumaev</b>	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan .....	342
<b>D.Akramov</b>	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>G.Oripova</b>	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
<b>I.Baltayeva</b>	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
<b>F.Oxunjonova</b>	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratilar ijodi misolida) .....	362
<b>D.Uralova</b>	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
<b>S.Begmatova</b>	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar .....	370
<b>A.Yuldashev</b>	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi .....	374
<b>O.Barziyev</b>	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar .....	382
<b>D.Sultonova</b>	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
<b>S.Alibekova</b>	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati .....	392
<b>Sh.Sherg'oziyev</b>	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi .....	396
<b>X.To'raxonova</b>	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi .....	400
<b>D.Hazratkuliyon</b>	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida) .....	403
<b>M.Narziqulov</b>	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi .....	410
<b>M.Mirzoyev</b>	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari .....	420

## TILSHUNOSLIK

<b>Z.Alimova</b>	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida .....	425
<b>O.Nazirova</b>	

## ADABIY VORISIYLIKNING XORIY ADABIYOTIDA O'RGANILISHI

## ИЗУЧЕНИЕ ЛИТЕРАТУРНОЙ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

## STUDY OF LITERARY CONTINUITY IN FOREIGN LITERATURE

Baltayeva Ikbal Tadjibayevna<sup>1</sup><sup>1</sup>Baltayeva Ikbal Tadjibayevna

– O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Chirchiq, dotsent, f.f.n.,

**Annotatsiya**

Maqolada adabiy vorisiylik va uning amal qilish mexanizmlari haqida rus olimlarining ayrim ilmiy-nazariy qarashlari, ilmiy tadqiqotlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, adabiy vorislik hamda uning davomiyligida an'ana, takmil (progress) va tajdid (novatorlik)ning roli masalasi, bu jarayonda ijodkor shaxsining iste'dodi, ijodiy kuch-quvvatining badiiy adabiyotdagi vorisiylikning uzluksizligini ta'minlashdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация**

В статье анализируются некоторые научно-теоретические взгляды и исследования отечественных ученых о литературной преемственности и механизмах ее действия. Также рассматривается вопрос о роли традиции, совершенствования (прогресса) и новаторства (новаторства) в литературной преемственности и ее преемственности, роли таланта и творческой силы творческой личности в этом процессе в обеспечении преемственности в художественной литературе обсуждалось.

**Abstract**

The article analyzes some scientific and theoretical views and studies of domestic scientists on literary continuity and the mechanisms of its action. The question of the role of tradition, improvement (progress) and innovation (innovation) in literary continuity and its continuity, the role of talent and creative power of a creative person in this process in ensuring continuity in fiction was also discussed.

**Kalit so'zlar:** vorisiylik, an'ana, ijodkor shaxsi, betakrorlik, badiiy topilma, davomiylilik, takroriylik, betakrorlik, milliy adabiyot, adabiy ta'sir.

**Ключевые слова:** преемственность, традиция, творческая личность, своеобразие, художественное изобретение, преемственность, повторение, неповторимость, национальная литература, литературное влияние.

**Key words:** continuity, tradition, creative personality, originality, artistic invention, continuity, repetition, originality, national literature, literary influence.

**KIRISH**

Adabiyotdagi yashash va rivojlanish quvvatini real hayotiy borliq va ijodkor iste'dodi hamda mehnati ta'minlar ekan, adabiy vorisiylikda ijodkorning tasvir mahorati belgilovchi ahamiyat kasb etib boradi. Chunki kechagi adabiyotda mavjud bo'lgan barcha narsa emas, balki mahorat bilan yuzaga keltirilgan va iste'molchi kitobxonlar e'tiborini tortish qudratiga ega bo'lgan ahamiyatli jihatlarga bugungi va ertangi adabiyotning tarkibiga ko'chib o'tadi, o'quvchilarning ma'naviy mulkiga aylanadi.

Ijodkor shaxsi, uning betakror iste'dodi, ijodiy kuch-qudrati darajasi keyingi zamonlarda ham yashashga arziqli bo'lgan badiiy topilmalarni yuzaga chiqarib, oziqlantirib, kamolga yetkazib turadi. Badiiy adabiyotdagi vorisiylikning uzluksizligini ta'minlashda iste'dodli ijodkor tomonidan kiritiladigan tajdid, turtki, betakror yangilanish va tozarish mana shu sababdan to'siqqa uchramaydi, inkor etilmaydi. Dunyo xalqlari adabiyotshunosligida adabiy vorislik masalalari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Adabiy vorislik hamda uning davomiyligida an'ana, takmil (progress) va tajdid (novatorlik)ning roli masalasi dunyo adabiyotshunoslarini ko'pdan buyon qiziqtirib keladi. Rus adabiyotshunosligida badiiy adabiyotdagi vorisiylik hodisasiga doir muammolar, uni harakatga keltiruvchi vosita va usullar, an'analar hamda yangilanishlar, adabiy ta'sir va aloqalar kabi ko'pgina masalalar ancha chuqur, jiddiy va keng qamrovda tadqiq etilgan. Jumladan, rus adabiyotidagi vorisiylikning asosiy qirralari, qonuniyatlari, ularning bu adabiyotda yuz ko'rsatgan tarixiy shakllari,

rus adabiyoti bilan xorijiy xalqlar adabiyotlari aloqadorligida namoyon bo'lish tarzi, milliy adabiyotning tarixiy taraqqiyotiga adabiy vorisiylik hodisasining ijobiy va salbiy ta'siri singari bir qator muammolar boy va rang-barang badiiy materiallarga tayanilgan holda atroflicha o'rganilgan. Misol uchun, rus adabiyoti tarixidagi an'ana va vorisiylik belgilari to'g'risida so'z yuritar ekan, tanqidchi V.G.Belinskiy yozgan ediki: "Hech bir shoir rus adabiyotiga A.S.Pushkin qadar ko'p tomonlama, kuchli va samarador ta'sir ko'rsatmagan edi. U fransuz psevdoklassisizmining Rasiyadagi noqonuniy hukmronligini o'ldirdi, bizning poeziyamiz manbalarini kengaytirdi, uni milliy turmushimiz elementlariga yo'naltirdi, sanoqsiz yangi shakllarni ko'rsatib berdi, ularni ilk marotaba rus hayoti, rus voqeligiga yaqinlashtirdi, yangi g'oyalar bilan boyitdi, tilimizni shu qadar o'zgartirdiki, yozgisi kelgan savodsizlar ham unda yomon she'r yozmaydigan bo'ldilar".

Bundan yarim asr avval "Adabiyot taraqqiyotidagi vorisiylik" deb nomlangan kitobini rus tilida nashr ettirgan E.A.Ballerning yozishicha: "vorisiylik yangi holatga o'tishda eskini butun yoki ayrim elementlari yohud belgilarini taraqqiyotning turli bosqich va davrlari orasidagi aloqadorlik sifatida saqlanishi tushuniladi. U katta avlodning boshlovchi avlodga ijodiy ta'siridagina iborat bo'lib qolmay, mumtoz adabiy an'analarning transformatsiyasini ham anglatadi.

Har bir avlod o'tmish adabiyotiga saylab munosabatda bo'ladi, unga faol ijodiy yondashadi, salaflar tajribasini o'z davri qo'ygan badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qildiradi. Shunga ko'ra adabiy an'ana va yangilik (novatorlik) hamqadamligi qonuniy hodisa bo'lib, bu ikkisi dialektik aloqadagi birlikni tashkil etadi va adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omiliga aylanadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi va unga nimadir qo'shishga intiladi, shu asosda taraqqiyot jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi.

"Adabiyot taraqqiyotidagi vorisiylik" deb nomlangan yana bir monografiyaning muallifi A.S.Bushminning uqtirishicha, "biz vorisiylikni adabiy jarayon taraqqiyotida qachonlardir amalda bo'lgan an'analarning sintezi deb tushunar ekanmiz, uning vaqt masofasi uzoq bo'lganiga qaramasdan, yaqindagi an'analardan aktualroq mohiyat kasb etishi mumkinligini unutmashimiz lozim. O'tgan zamonlarning buyuk badiiy yaratqilari ko'p yillik mevali daraxt singaridir. Har bir avlod undan o'ziga kerakli hosilni oladi".

V. Potebnya insoniyatning haqiqat uchun tinimsiz intilishi so'z vositasida voqe bo'lishini ijodiy izlanishlarning bosh omili deb belgilaydi. U obraz va simvolni san'at va ilm-fan yo'nalishlaridagi yaratuvchilikning negizi sifatida ta'riflash asnosida haqiqatni izlash zavqi faqat individual ijodkor uchungina emas, kishilik madaniyatining shakllanishi va jamiyat taraqqiyoti uchun ham harakatlantiruvchi kuch vazifasini o'tay olishini, bu esa o'z navbatida adabiy-madaniy yodgorlik yoki yuksak darajada badiiy kristallangan ma'naviyat odamlarni kishilik jamiyati kamolotiga yetaklashini qayta-qayta ta'kidlagan edi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Umuman olganda, an'ana ham takroriylikda betakrorlik qonuniyatiga amal qilgani uchun adabiy vorisiylik yuzaga keladi. Bu qonuniyat adabiy jarayondagi muayyan an'analar va ularning yangilangan holda (novatorlik bilan) qo'llanilishi natijasida amal qiladi. Ushbu masalaning eng murakkab tomoni adabiy jarayonning an'anaviylik hodisasi va undan tashqarida turuvchi barcha boshqa omillar bilan birgalikda takroriylik xususiyatiga egaligi, ana shu takroriylik bag'rida yuz beradigan betakrorlik orqali adabiy vorisiylikning tadrijiy davomiyligi ta'minlanishini tushunib yetishdan iborat. Chunki badiiy ijoddagi vorisiylik ijodiy jarayondagi barcha jihatlarning oddiy mexanistik takrorlanishi orqali davom ettirilishi emas. U ijodiy jarayondagi ayrim zarur jihatlarning ongli ravishda muayyan g'oyaviy-badiiy ideallarga tayanilgan va rivojlantirilgan holda takrorlanishini ko'zda tutadi. Demak, adabiy vorisiylik biror adabiy hodisaning shunchaki nusxa ko'chirilishi, qaytarilishini emas, balki uning jonli, izchil vazifadoshlik xususiyatiga ega bo'lgan holda yangi sifat belgilariga ega bo'lib qaytarilishini bildiradi. Bunday takroriylik bag'rida badiiy betakrorlik paydo bo'ladi.

### XULOSA

Rus adabiyotshunosligida takroriylik va betakrorlik hodisalari akademik A.S.Bushmin, Y.Y.Barabash kabi olimlar tomonidan atroflicha jiddiy tadqiq etilgan.

Demak, adabiyotdagi vorisiylik qonuniyatining amal qilishi, turli tarixiy davrlarda turlicha xususiyat va shakllar kasb etishini adabiy jarayonning aniq bosqichlari, ularda yaratilgan asarlarning atroflicha chuqur tahlili orqali to'g'ri belgilash mumkin bo'ladi. Vorisiyliksiz adabiy ijodning davomiyligi, uzluksizligi, uzviyligi va taraqqiyoti haqida so'z bo'lishi mumkin emas.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Adabiy an'ana badiiy adabiyotdagi vorislikni ta'minlashdagi asosiy unsur hisoblanar ekan, birinchi navbatda, ushbu tushunchaning mohiyatini aniqlash, unga xos bo'lgan xususiyatlarni tayin qilish talab etiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Белинский В. Г. Поли, собр, соч. в 13-ти т., Том 5, -С.235. (Belinsky V. G. Poly, coll, op. in 13 volumes, Volume 5, -p.235.)
- 2.Баллер Э. А. Преемственность в развитии культуры. Москва: 1969. –С.38. (Baller E. A. Continuity in the development of culture. Moscow: 1969. -p.38.)
- 3.Бушмин А.С.Преемственность в развитии литературы.Ленинград.1978.-С.67. (Bushmin A.S. Continuity in the development of literature. Leningrad. 1978.-P.67.)
4. Потебня А.Теоретическая поэтика. Москва: Высшая школы, 1990. –С.42;7. ( Potebnya A. Theoretical poetics. Moscow: Higher School, 1990. -p.42;7.)
- 5.Ванслов В. В. Прогресс в искусстве. –Москва: 1973; Гончаренко Н. В. О прогрессе в искусстве. –Киев: 1968. (Vanslov VV Progress in art. – Moscow: 1973; Goncharenko N.V. On progress in art. – Kiev: 1968.)
- 6.Емельянов Л. И. Развитие литературы и проблема народности//О прогрессе в литературе . -Ленинград: 1971. (Emelyanov L. I. The development of literature and the problem of nationality / / On progress in literature. - Leningrad: 1971.)
- 7.Davronova Sh.G'. Istiqlol davri o'zbek romanlarida Sharq v G'arb an'analaring badiiy sintezi. Filologiya fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand. 2019.-B.15. (Davronova Sh.G. Artistic synthesis of Eastern and Western traditions in Uzbek novels of the period of independence. Dissertation written for the Doctor of Science degree. Samarkand. 2019.-B.15.)
- 8.Qobilola Z.B. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik (Amiriy ijodi misolida). Filologiya fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Farg'ona.2020. (Qabilola Z.B. Influence and followership in artistic creation (in the case of Amiri's work). Dissertation written for the Doctor of Science degree. Fergana. 2020.)